



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 4-iyul, shanba,
59 (24.239)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yolg'iz
daraxt o'rmon
bo'lmas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Mehnat faxriylariga EHTIROM



Samarqand shahrida O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi vasiylik Kengashining yaqinda qabul qilingan qaroriga ko'ra, "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan nuroniylarga ushbu nishonlarni topshirish marosimi o'tkazildi.

Tadbirida viloyat hokimi Adiz Boboyev, "Nuroni" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Sharof Ubaydullayev mukofotlanganlarni tabriklab, yurtimizda keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, nuroniylarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki haqida so'z yuritdilar.

– Bugun bu yerda jam bo'lgan ulug' yoshdagi otaxon va

onajonlarimiz chinakam mehnat faxriylari, – dedi A.Boboyev. – Ular o'z vaqtida jamiyat hayotining turli sohalarida fidokorona mehnat qilib, viloyatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Ayni chog'da ham pensiyada bo'lsalar-da o'z hayotiy tajribalari, bilim va salohiyatlari bilan yoshlarga ibrat bo'lib, to'g'ri yo'l ko'rsatib, nafaqat o'z oilalarining, balki jamiyatimizning tayanchi bo'lib kelmoqdalar. Ularning faolligi, duolari barcha ishlarimizga unum, baraka bag'ishlayapti.

Marosimda "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlari o'z egalariga tantanali topshirildi. "Nuroni" jamg'armasi vasiylik kengashi qaroriga ko'ra, bu yil 78 nafar samarqandlik nuroniylarning ko'p yillik samarali faoliyati e'tirof etilib, ushbu mukofotga loyiq ko'rildi.

B.MUSTANOV.



Indoneziyaliklar "UMRA+"

dasturi asosida Samarqandni ziyorat qiladi

Viloyat hokimi Adiz Boboyev tashrif bilan yurtimizda bo'lib turgan Indoneziya Respublikasi Xalq maslahati kengashi raisi Ahmad Muzani boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, ziyorat turizmi yo'nalishida aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

– Indoneziya bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, turizm sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lishi shubhasiz, – dedi A.Boboyev. – Xususan, "Umra+" dasturi asosida indoneziyalik musulmonlarning Samarqandga kelib, Imom Buxoriy va boshqa muqaddas qadamlarimizni ziyorat qilishi tomonlar uchun birdek iqtisodiy samara beradi. Keyingi yillarda ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorligimiz ham kengayib borayotganidan mamnunmiz. Bu boradagi aloqalarni istiqbolli yo'nalishlarda izchil davom ettirishga tayyormiz.

– "Umra+" dasturi biz uchun ham

o'ta muhim. Chunki aholimizning 244 millionini musulmonlar tashkil qiladi va ular uchun Samarqand yo'nalishi qiziqarli bo'lishi tabiiy, – dedi Indoneziya Xalq maslahati kengashi raisi Ahmad Muzani. – Shuning uchun biz bilan kelgan diniy ulamlarimiz ziyorat turizmini amalga oshirish bo'yicha shu soha mas'ullari bilan fikr almashyapti. Buning natijasi tez orada Samarqandda indonez restoranlari ko'payishi, bozorlarda indonez tilida so'zlashuvchilar soni ortishi bilan ham namoyon bo'ladi.

Uchrashuvda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, to'g'ridan-to'g'ri aviareyslarni amalga oshirish bo'yicha takliflar bildirildi. Viloyat hokimi tez kunlarda samarqandlik tadbirkor tomonidan Indoneziyada milliy taomlar restorani ochilishini ma'lum qildi.

A.ISROILOV.

Yoshlar hayoti

Kamonchadan boshlangan orzular

Shahzodbek Elbekov Oqdaryo tumanida tug'ilib o'sgan. U bolaligidayoq harbiy bo'lishni orzu qilgan. Sportga, matematika va fizika fanlariga qiziqqan. Maktabni tamomlagach, harbiy litseyda ta'lim oldi. 2021-yildan Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida o'qishni davom ettirdi.



– Nabiram Shahzodbekni o'zim katta qilganman, – deydi samarqandlik tanig'li ijodkor Oygul Mamatova. – Bolaligida juda sho'x edi. Ukasi Shahzodbek bilan harbiylarga xos o'yinlar o'ynardi. Tol xivichdan kamon yasardi, tez sinib qolardi. Rosa xunob bo'lar-di. Keyin o'zim tut xivichidan kamon yasab berardim. Shu bilan xursand bo'lib, uzoq vaqt o'ynardi. Balki merganlikka qiziqishi o'shanda boshlangandir. Simdan traktorchalari, tankchalari yasardi. Bir yigitga qirg'unchi oz deganlaridek, musiqa ham qiziqardi. Shuning uchun bolalar musiqa va san'at maktabining rubob sinfini tamomladi.

Shahzodbek bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismida otryad komandiri vazifasida xizmat qilmoqda. U merganlik va mohir o'qotarlik bo'yicha yuqori natijalarga erishib, xalqaro musobaqalarda mamlakat sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

Jumladan, 2019-yilda Qozog'istonda o'tkazilgan umumarmiya o'yinlarida jamoasi bilan birinchi o'rinni egallagan.

Keyingi yillarda ham Shahzodbek o'z ustida tinimsiz ishlab, kasbiy mahoratini yanada oshirdi. Yaqinda Belarus Respublikasida bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro musobaqada dunyoning 30 davlatidan kelgan kuchli raqiblar bilan bellashib, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu natija mamlakat harbiylarining xalqaro maydondagi salohiyatini yana bir bor namoyon etdi.

30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan, bilimli, jasur va fidoyi yoshlarni davlat mukofotlari bilan taqdirladi. Ular orasida Shahzodbek Elbekov ham bor. U "Mard o'g'lon" davlat

mukofotiga sazovor bo'ldi.

– Prezidentimiz mukofotni topshira turib: «Ota-onangga rahmatimni yetkaz. To'xtama, yanada katta yutuqlarga intilishda davom et», dedilar, – deydi Shahzodbek Elbekov. – Bu so'zlar men uchun eng katta rag'bat va mas'uliyat bo'ldi. Bundan buyon ham biz uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, Vatanimga sidqidildan xizmat qilaman va yangi yutuqlarni qo'lga kiritaman.

Shahzodbek bugungi kunda nafaqat mohir harbiy mutaxassis, balki jasorat, intilish va vatanparvarlikning yorqin namunasi sifatida yoshlarga ibrat bo'lib kelmoqda.

To'liq SIDDIQOV.

YOSHLAR UCHUN IMKONIYAT

Ahmad SALOYEV,
tadbirkor:

– 2025-yilgi tadbirkorlar bilan uchrashuvda davlatimiz rahbariga Yaponiya davlati bilan hamkorlikda servis sohasida "Gastro Expert" korxonasi bilan maxsus servis mahsulot yaratish g'oyasini bildirgandim. Bu orqali yurtimiz o'g'il-qizlarini zamonaviy texnologiyalar va kasbiy ko'nikmalarga o'qitish markazi faoliyatini kengaytirish taklifini bergandim. Prezidentimiz bu g'oyani qo'llab-quvvatladi, kerakli ko'rsatmalarni berdilar. Bugungi kunga qadar "Gastro Expert" o'quv markazida 400 nafardan ortiq o'g'il-qiz servis sohasida o'qitilib, sertifikatlarga ega bo'ldi.



Ana xolos!

"Sizga ma'lumot berolmaymiz, rahbarimiz aytgan"

Yaqinda kasb yuzasidan bir davlat tashkilotidan ma'lumot so'radim. Tashkilot mas'ul xodimi "Sizga ma'lumot berolmaymiz, rahbarimiz aytgan", dedi.

– Nega? – deb so'radim hayron bo'lib.

– Siz bizning tashkilotni tanqid qilgansiz. Esingizdami?

– Yo'q, nima deb tanqid qilibman? Shunda u bir necha kun avval bir olim bilan suhbatlashganimni eslatdi. Suhbat muayyan tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida edi. Tabiiyki, har qanday tahliliy suhbatda bo'lgani kabi yutuqlar bilan birga, muammolar va yechimini kutayotgan kamchiliklar haqida fikrlar aytilgan, turli tashkilotlar qatorida ushbu muassasa ham tilga olingan edi. Shu holat ma'lumot bermaslik uchun asos bo'libdi. Savol tug'iladi, o'sha tashkilot

noo'rin tanqid qilingan bo'lsa, nega material e'lon qilinishi bilan e'tiroz bildirmadi, munosabat bermadi yoki holat yuzasidan tegishli joylarga murojaat qilmadi?

Mavridi kelganda aytay, ayrim rahbarlar haligacha ommaviy axborot vositalaridan qochadi, hamkorlikda ishlamaydi. Buni aksariyat tashkilotlarda (yuqoridagi kabi) axborot xizmati rahbari vazifasini boshqa bir xodimga yuklatilganidan ham bilish mumkin. Aslida gap o'sha tashkilot menga ma'lumot bermaganida emas, balki tizimda tanqidni hali-hamon to'g'ri qabul qila olmayotganlar borligida. Vaholanki, tanqidning mohiyati yomonlash emas, muammoni ko'rsatish va uni bartaraf etish. Eng qizig'i, suhbatda aytilgan fikrlar mening shaxsiy xulosalarim emasdi. Ular sohada ko'p

yillik tajribaga ega olimning mulo hazalari edi. Agar har bir tanqidiy fikr uchun jurnalist "qora ro'yxat"ga tushsa, muammolar haqida kim gapiradi?

Davlat tashkilotlari budjet mablag'lari hisobiga faoliyat yuritadi, boshqacha aytganda, fuqarolar to'laydigan soliqlardan maosh oladi. Shunday ekan, ulardagi axborot ham qonunchilikda belgilangan cheklorlardan tashqari jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi kerak emasmi? Ma'lumot berish yoki bermaslik jurnalistning munosabatiga emas, qonun talablari-ga asoslanishi lozim. Chunki har bir e'tiroz ortida jamiyatning ma'lum bir ehtiyoji bor. Ayniqsa, mamlakatimizda ochiqlik siyosatiga yo'l berilayotgan davrda bu kabi yondashuvlar saqlanib qolayotgani achinarli.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

MAS’ULIYAT MEZONI VA NAZORAT KUCHI

demokratik yangilanishlar va islohotlarning mahalliy bosqichi

Mahalliy Kengashlar o‘z hududida xalq farovonligini ta’minlash, to‘planib qolgan muammolarga yechim topishda ishonchli tashkilot hisoblanadi. Shu sababli ham davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ular faoliyati zamon talabi asosida takomillashdi. Xususan, deputatlik so‘rovlari nufuzining oshirilishi islohotlar borishini nazorat qilishda muhim rol o‘ynayapti. Kengashimiz deputatlari ana shu mas’uliyatni his etgan holda, saylovchilar ishonchini oqlashga harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda sessiyalarimiz ilgari kabi shunchaki rasmiy yig‘ilish emas, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti real tahlil qilinadigan, kamchiliklar ro‘y-rost aytiladigan va mahalliy rahbarlarning faoliyatiga xolis baho beriladigan haqiqiy munozara maydoniga aylanayпти.

MANSABDOR HISOBOTINI ESHITISHDAN MAQSAD NIMA?
Ko‘pchilikda «Xo‘sh, Kengash sessiyasida biror rahbarning hisoboti eshitilsa, undan oddiy xalqqa nima naf? Balandparvoz raqamlardan iborat ma‘ruzalar kimga kerak?» degan haqli savol- lar tug‘ilishi tabiiy. Ammo bugun tizim mutlaqo o‘zgardi. Mahalliy Kengash sessiyasida mansab- dor shaxsning hisoboti yoki axborotini eshitishning asosiy maqsadi - hududdagi eng dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq, manzilli va muddatli cho- ra-tadbirlarni belgilashdan iborat.
Xususan, qonunlar, Prezident hujjatlari (farmon va qarorlari) hamda xalq deputatlari mahal- liy Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning joylardagi ijrosi holati qanday? Rahbarlar bu hujjatlarni shunchaki papkaga solib qo‘yganni yoki ular hayotga tatbiq etilyaptimi? Shuni qat’iy tekshiramiz.
Hisobot beruvchi davlat organi yoki tashkiloti oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi darajasi qanday? Agar muayyan topshiriq bajarilmagan bo‘lsa, uning obyektiv va subyektiv sabablari nimada?
Bugun mahalla davlat idoralarining ko‘zgusiga aylandi. Rahbarning «Mahalla yettiligi» bilan hamkorligi qay darajada yo‘lga qo‘yilgan? Hududda kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirildi? Bu savollarga javob topmay turib, hisobotni qabul qilib bo‘lmaydi.
Alohida qayd etish lozim, xalq deputatlari mahalliy Kengashi shunchaki tinglab, «rah- mat» aytadigan idora emas. Hisobotni eshitish yakunida, agar tizimda ijobiy o‘zgarish bo‘lmasa, berilgan topshiriqlar bajarilmagan va aholi noroziligi saqlanib qolgan bo‘lsa, mahalliy Kengash mansabdor shaxs faoliyatini «qoniqarsiz» deb topishi va uni vazifasi- dan ozod etish bo‘yicha yuqori tashkilotlarga taqdimnoma kiritishi mumkin. Bu esa katta siyosiy kuch va mas’uliyat.

SANITARIYA-GIGIYENA TIZIMI KENGASH NAZORATIDA
Yuqorida tilga olingan nazorat funksiyalarimizni amalda qo‘llash, sohalardagi asl holatni yuzaga chiqarish maqsadida yaqinda o‘tkazilgan xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq 22-sessiyasida boshqa masalalar qatori aholi salomatligi va turmush madaniyati bilan bevosita bog‘liq hisobot tinglandi.
Ishtixon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i G‘.Abdumuratovning hisoboti va Kengash doimiy komissiyalari- ning o‘rganishlari natijasida asl holat raqamlarda namoyon bo‘ldi. To‘g‘ri, tizimda muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilgan, ammo umumiy manzara hali quvonarli emas.
Masalan, maktab va bog‘chalarda toza ichimlik suvining bo‘lishi yuqumli ka- salliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ammo biz erishilgan yutuqlar- ga mahliyo bo‘lib o‘tiradigan davrda yashamaypmiz. Sessiyada asosiy e’tibor haligacha o‘z yechimini kutayotgan, aholining haqli e’tirozlariga sabab bo‘layot- gan og‘riqli nuqtalarga qaratildi. Jumladan, tumandagi 76 ta muassasadagi hojatxonalar haligacha abgor va ta’mirlalab holatda qolmoqda. 48 ta muassa- sada mavjud hojatxonalarni ta’mirlash imkonsiz, ularni zamonaviy andozalar asosida qayta qurish talab etiladi.
Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalar (AYOQSh) va umumiy ovqat- lanish korxonalarida sanitariya talablariga to‘liq rioya etilmayapti. Yo‘lovchi- lar va sayyohlar to‘xtaydigan bu joylardagi antisaniitariya holati tumanimiz obro‘siga putur yetkazmoqda.
Tumanda markazlashgan oqova suv (kanalizatsiya) tizimi bilan qamrov darajasi juda past. Oqova suv tizimi bo‘lmagan joyda qanday qilib yuksak sanitariya tozaligiga erishish mumkin? Bu masala tuman darajasidan ham yuqori, respublika investitsiya dasturlariga kiritilishi lozim bo‘lgan strate- gik muammodir.

KENGASH POZITSIYASI VA BELGILANGAN VAZIFALAR
Muhokamalar shunchaki gapligicha qolmadi. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi tomonidan sohadagi ahvoli tubdan sog‘lomlashtirishga qaratilgan, ijrosi majburiy bo‘lgan tegishli qaror qabul qilindi.
Qaror bilan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salo- matligi bo‘limi hamda tuman hokimligining tegishli majmualari, mu- tasaddi tashkilotlari oldiga quyidagi aniq va keskin vazifalar qo‘yildi.
Jumladan, sanitariya holatini umumiy gaplar bilan emas, balki har bir mahalla va muassasa kesimida muntazam monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Ta’mirtalab va qayta qurilishi zarur bo‘lgan (76 ta va 48 ta) hojatxonalar bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, moliyalashtirish manbalarini aniqlash lozim. Ijtimoiy soha muassasalarida zamonaviy sanitariya infratuzilmasini kengaytirish choralari ko‘rish zarur. Tadbirkorlik subyektlarida, ayniqsa, yo‘l bo‘yi infratuzilmasida sanitariya talablariga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirilishi, kerak bo‘lsa, qonuniy cho- ralar ko‘rilishi talab qilinadi.
Eng muhimi, ushbu qaror shunchaki qog‘ozda qolib ket- maydi. Biz uning ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining doimiy komissiyasi nazoratiga topshirdik. Endi har chorakda mas’ullar Kengash oldida qaysi maktabning, qaysi bog‘chaning sanitariya tizimi yaxshilangani bo‘yicha aniq hisobot beradi.
Xalq vakili sifatida shuni ayta olamanki, bugungi Kengash - kechagi loqayd idora emas. Biz saylovchilarimiz oldida hisobdormiz. Sanitariya-gigiyena tizimi, ichimlik suvi ta’mi- noti, maktab va shifoxonalarimizning ahvoli kabi masalalar bevosita inson sog‘lig‘i va millat genofondiga daxldordir. Ishtixon tumanida bu boradagi muammolar to‘liq barham topmaguncha biz, deputatlar tinchimaymiz.
Davlat idoralari rahbarlari esa bir narsani yaxshi anglab olishlari kerak: Kengash sessiyasiga hisobot berish - bu faqat majburiyat emas, bu xalq imtihoni- dan o‘tish demakdir. Biz tumanimizda qonun ust- vorligi, qarorlar ijrosi va xalqimizning farovon hayotini ta’minlash yo‘lida bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Ishtixon tumani nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy madaniyat va tozalik borasida ham namunali hududga aylanishi shart va bunga albatta birgalikda erishamiz.

**Samo ABDUG‘ANIYEV,
xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashi deputati.**

Lekin shu o‘rinda statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tsak ziyon qilmaydi. Milliy statistika qo‘mtasining 2026-yil 1-aprel holatiga oid ma‘lu- motlariga ko‘ra, mamlakatimizda aholiga tegishli transport vositalari- ning umumiy soni 4 million 903 mingtaga yetdi.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 344,6 mingtaga ko‘pdir. Avtoparkning mutlaq ko‘pchiligini, ya’ni 92,8 foizini yengil avtomobillar tashkil etadi. Xususan, aholi ixtiyorida 4 million 552 mingta yengil mashina mavjud.
Qolgan transport vosita- lari yuk avtomobillari (330,3 mingta), mikroavtobuslar (7,5 mingta), maxsus texnikalar (7,2 mingta) hamda avtobuslar (5,8 mingta) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**HAR O‘TGANIDA
YURAK ZIRILLAYDI...**
Yuk mashinalarining qatnovini kamaytirishning iloji yo‘q, albatta. Garchi har o‘tganda zirillab, na- faqat quloqni, balki yengil avtom- obillarni ham bir titratib qo‘yadigan bu yuk mashinalarining ko‘paygani iqtisod yaxshilanayotganini bildir- sa-da, ...M39 yo‘li shu normaga javob berarmikan? Ushbu trassada bir necha yildan beri doimiy ravishda asfaltlash ishlari olib borilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Xo‘sh, yo‘l bu kabi og‘ir yuk mashinalari uchun qanchalik chidamli?
Men aytmoqchi bo‘lgan asosiy masa- la boshqa tomonda. M39 yo‘lining katta qismida daraxtlar yo‘q. Ehtimol, ilgari bu sezilmagandir, mashinalar qatnovi keskin oshgani bu zaruratni keltirib chiqarmoq- da. Xo‘sh, katta yo‘l yoqalarida daraxt ekishning qanday afzalliklari bor, bu haqda batafsilroq to‘xtalsak.
KO‘P FUNKSIYALI BITTA YECHIM
- Yo‘llar bo‘ylab daraxtlar ekilishi ekologik, funksional va estetik maqsadlarni birlashti-

Tun, 1.00, M39 yo‘li... Saratonning kunduzgi issig‘idan so‘ng tungi mayin, salqin shabada kishiga orom beradi. Lekin avtomobil derazasini ochsangiz, shovqindan boshingiz aylanadi. Kechki salqin ham tatimaydi. Avtomobillar qatnovi shunchalik ko‘payganki, ularning shovqini quloqni shang‘illatib yuborsa, qarama-qarshi tomondan kelayotgan avtomobil chiroqlarining o‘tkir yorug‘ligi ko‘zni charchatadi. Mashina rulini boshqarmasa-da, bu holat yo‘lovchini toliqtiradi. Keyingi paytda katta trassalarda nafaqat kunduzi, balki tunda ham avtomobillar qatnovi keskin oshganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, yuk avtomobillari qatnovining ko‘payganini statistik ma‘lumotlarsiz, bir kun M39 yo‘lidan qatnasangiz his qilasiz.



radi, - deydi Samarqand davlat universiteti professori geografiya fanlari doktori Vahob Rafiqov. — Birinchi navbatda yo‘l chetidagi daraxtlar qor va qum ko‘chkilaridan shamol eroziyasidan himoya qiladi. Shuningdek, yashil nabotot avtomobillardan chiqayotgan karbonat angidrid, zararli chiqindilar (azot va oltingugurt oksidlari) va changni yutib, havoni tozalaydi. Ular shuningdek, kislorod ajratib chiqaradi va havo sifatini yaxshilaydi.
Ayniqsa, ovoz izolyatsiyasida daraxtlar- ning o‘rni muhim. Yashil maydonlar transport shovqinini kamaytiradi, haydovchilar va yaqin atrofdagi hududlar aholisi uchun yanada qulay sharoit yaratadi.
Yana bir jihati, yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.
Daraxtlar tabiiy to‘siqlar vazifasini bajaradi, transport vositalarining yo‘ldan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, quyosh nurlaridan himoya qila- di. Ular shuningdek, yo‘l chegaralarini vizual ravishda belgilaydi va haydovchilarga yo‘lni topishga yordam beradi.
Qolaversa, yashil xiyobonlar yoqimli vizual ko‘rinish yaratadi, haydovchilar uchun stressni kamaytiradi va issiq havoda soyani ta’minlaydi, asfaltning qizib ketishini kamaytiradi. Bir so‘z bilan aytganda, yo‘llar bo‘ylab daraxt ekish atrof-muhitni, xavfsizlik va qulaylikni yaxshi- lashga qaratilgan ko‘p funksiyali yechimdir.
Daraxt ekish haqida gap ketar ekan, yana bir muhim hududlarni ham aytib o‘tish joiz. Ya’ni, O‘zbekistondagi 196 ming kilometr- li kanal bo‘ylariga ham ming afsuski, daraxt ekilmagan. Atigi 4 foizigina talabga javob

beradi. Vaholanki, buning ekologiyaga ko‘plab ijobiy ta’sirlari bor. Misol uchun, daraxtlarning baquvvat ildiz tizimi tuproqni mahkam tutib turadi, natijada qirg‘oq o‘pirlilishining oldi olina- di. Ekin maydonlarini shamol ta’siridan himoya qiluvchi yashil to‘siq vazifasini bajaradi. Suv sifatini asraydi, ya’ni daraxtlar suvga tushadi- gan quyosh nurini kamaytirib, suvning haddan tashqari qizib ketishi va tez bug‘lanishining oldini oladi.
Yo‘l yoki sanoat hududlari yaqinida oqib o‘tuvchi kanallar atrofidagi daraxtlar tabiiy filtr hisoblanadi. Bu borada yer osti suvlari sathi baland hududlarga suvni ko‘p bug‘lantiradigan va ildizi tuproqni chuqur tortuvchi teraklar, tollar va qayrag‘ochlarni ekish ayniqsa, foydali hisoblanadi.
24 SOAT QATNOV
Kunduzgi 14.00. M39 yo‘li. Saraton quyoshi nafasni qaytarguday yondirmoqda. Yo‘lda asfaltning hili chiqyaptimi yoki katta yuk mashinalar tutunimi, ajratib bo‘lmaydi. Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, qatnov siyrak emas. Yo‘l chetida daraxt bor hudud- lar nisbatan salqindek taassurot uyg‘otadi. Lekin daraxt bor joydan ko‘ra yo‘g‘i ko‘proq. “Yashil makon” loyihasi ishtirokchilari, taksi, yuk mashinalari haydovchilari birlashib, shu ishga kirishsa bo‘lmaydimi? Shuncha foy- dalari bilan bir qatorda har safar u yoki bu viloyatga qatnaganda “men ekan daraxt bu” deya bir qarab o‘tish ham zavqli-ku...
**Gulruh MO‘MINOVA,
“Zarafshon” muxbiri.**

Qishloq ahli orzusi ushalmoqda



Tumandagi 177 ming aholining 53 foizdan ortig‘i markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlangan bo‘lsa, suvoqova xizmatidan foydalanuvchilar ulushi 8,9 foizni tashkil etadi. 35 ta mahallaning 18 tasi qisman, 11 tasi esa haligacha to‘liq ichimlik suvi bilan ta’minlanma- gan. Mavjud 168 kilometrlik tarmoqning 35 kilometri ta’mirlalab.
- Joriy yilda o‘ndan ortiq loyihalarni amalga oshirmoq- damiz, — deydi “Samarqand suv ta’minoti” tuman filiali rahbari Vahob Ergashev. — Ayniqsa, ichimlik suvi bi- lan bog‘liq muammolar ko‘p kuzatilayotgan Miyonqol, Go‘zalkent va Primkent mahallalarida yangi suv inshoot- lari qurilmoqda. Loyihalar to‘liq amalga oshirilsa, 2450 ta xonadon toza ichimlik suviga ega bo‘ladi. Bu maqsadlar uchun 5 milliard 200 million so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan.
So‘nggi yillarda yer osti suvlari sathining pasayib ketishi aholi uchun yana bir jiddiy muammoga aylan- gan. Ilgari 15-20 metr chuqurlikdan chiqqan suv hozirda

ancha kamaygan. Ariq va zovurlarda ham suv taqchil- ligi kuzatilmoqda. Natijada aholi katta mablag‘ sarflab, 70-80 metr chuqurlikdagi artezian quduqlarini qazishga majbur bo‘lmoqda.
— Mahallamiz aholisi vodoprovd suvidan qachon foydalanганиni eslash qiyin, — deydi Miyonqol mahallasi Qo‘lton qishlog‘i fuqarosi A. Rahimov. — Keyingi yillar- da hatto tomorqamizni sug‘orish uchun ham suv topish mushkul bo‘lib qoldi. Shu sababli shaxsiy quduq qazdi- rishga to‘g‘ri keldi. Bu ancha xarajat talab qiladi. Endi esa qishlog‘imizda suv inshooti qurilib, har bir xonadon- ga tarmoq tortilayotgani barchamizni quvontirmoqda. Yaqin vaqtlarda ikki mingdan ortiq xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlanadi.
Amalg oshirilayotgan loyihalar nafaqat aholining tur- mush sifati va salomatligini yaxshilashga, balki qishloq- larning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.
Dilmurod TO‘XTAYEV.

KITOBSEVARLIK –
QADRIYAT

To'qqiz yil oldin boshlangan "Yosh kitobxon" tanlovi bugungi kunda millionlab yoshlarni kitob bilan yaqindan do'stlashtirdi, mutolaa madaniyati deyarli har bir xonadonga kirib bordi. Ushbu tanlovning yakuniy bosqichida mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etishi, g'olib 50 ming dollar bilan taqdirlanishi – bularning barchasi mukofot salmog'i ini belgilabgina qolmay, balki yurtimizda ma'rifiy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlanganligi, uning tobora keng quloqch yoyib borayotganini bildiradi.

Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori kitobxonlik harakatini rivojlantirishda yana bir muhim qadam bo'ldi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – har bir insonning yiliga kamida 10 ta kitobni o'qishga erishish, pirovardida mutolaa madaniyatini umumxalq harakatiga aylantirishdan iborat.

Dunyoda axborot urushi avj olib borayotgan sharoitda xalqimizni tezkor axborot bilan ta'minlash, sohalarda raqamlashtirishni joriy qilish, odamlarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish davr taqozosiga aylandi. Har qanday rivojlangan davlatni olib qarang, uning taraqqiyoti zamirida ilm-fan, ta'limga, kitobga e'tibor yetadi. Kitobxonlikni rivojlantirmay turib ma'rifatli jamiyat qurib bo'lmayligi allaqachon isbotlangan.

Ammo kitobxonlikni umumxalq harakatiga aylantirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirishdek ezgu ishlarni faqatgina yoshlar o'rtasida olib borish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Tadbir aholining barcha

qatlamini qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, kitobxonlik tadbirlarini ta'lim sohasidan boshqa sanoat, qurilish, tibbiyot, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi va san'at sohalarida ham joriy qilish zarur. Viloyatimiz mahallalarida ta'lim muassasasi hamkorligi doirasida kutubxonalar tashkil etib, huquqbuzarlik holatlarining oldini olish mumkin.

Davlatimizning kitobxonlik harakatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarini amalga oshirish borasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida muayyan ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash o'rinli. Maktab ta'limi sohasida faoliyat olib borayotgan, ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchisi bo'lgan har bir inson, xoh o'quvchi bo'lsin, xoh o'qituvchi, barchaning kitobga mehr qo'yishi, mutolaa madaniyatini oshirishga erishish lozim.

Ushbu yo'nalishda viloyat pedagogik mahorat markazida olib borilayotgan ibratli ishlarni e'tirof etish zarur. Yakuniga yetgan o'quv yilida maskanda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga alohida, pedagogning kasbiy rivojlanishiga ko'mak beruvchi

muhim omil sifatida yondashildi. Jumladan, o'zbek adabiy muhitida muhim o'rin olgan yangi nashrlar, ma'rifatparvar adiblarimiz yaratgan adabiy-tarixiy asarlar taqdimoti, mustaqillik davri o'zbek yozuvchilarining asarlarini o'rganishga bag'ishlangan "Zukolar bellashuvi" singari tadbirlar tashkil etildi.

Ayniqsa, "Kitobxonlik soati" tanloviga Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Said Ahmadning "Ufq", Oybekning "Navoiy", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Xayriddin Sultonovning "Yaldo kechasi" kabi asarlari mavzu qilib olindi.

Axborot-resurs markazimizda qariyb 17,5 ming siyosiy, ilmiy-uslubiy, badiiy adabiyotlar va kasbga oid darsliklar mavjud bo'lib, 50 o'rinli o'quv xonasida tinglovchilar, markaz professor-o'qituvchilariga xizmat ko'rsatiladi.

Komil HAYDAROV,
viloyat pedagogik mahorat
markazi professori, falsafa
fanlari doktori.



"Sog'lom avlod uchun" fondi tomonidan bolalarni Germaniyaga davolatishga jo'natganimiz sababli ko'pchilik turli xastaliklari bor bolalarni ushbu davlatda davolab berishimizni so'rab murojaat qiladi. Lekin afsuski, barcha bemor bolajonlarni jo'natish imkoniyatimiz yo'q.

Fond va "Riss Village International" xalqaro gumanitar tashkiloti (Germaniya) o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, asosan kuyish, mushak-skelet tizimining tug'ma patologiyasi, osteomielit, tug'ma yuz-jag' nuqsonlari mavjud bolalar davolash uchun xorijlik mutaxassislar tomonidan saralab olinadi. O'tgan yildan boshlab hozirga filial tibbiy-ijtimoiy patronajining ko'chma brigadasi hududiy hokimliklar, mahalla kengashlari va sog'liqni saqlash muassasalari ko'magida viloyatning eng olis qishloq va mahallalarida yashovchi 1612 oila a'zolarining psixologik iqlimi va salomatlik holatini muntazam o'rganib chiqdi. Ko'riklar jami 17145 kishini, shu jumladan, 6623 bola va 8389 ayolni qamrab oldi. Fondning ko'chma brigadalari orqali kam taminlangan, ko'p bolali oilalar va nogironlarga xayriya yordami sifatida 23 958 paketli dori-darmon, shu jumladan, 3995

GERMANIYADA
DAVOLANISHNING
TARTIBLARI BOR

ma-bosqich davolanishni davom ettirmoqda. Ya'ni, bu muolajalar tug'ma yuz-jag' nuqsonlari ("yoriqlab", "tanglay yoriqli") bilan tug'ilgan bolalarga ajratilgan grant mahlag'lari hisobidan amalga oshirildi.

Fondning viloyat filiali tomonidan oilalarning ijtimoiy, tibbiy holati to'liq o'rganilib, tahlil etiladi. O'tgan yildan boshlab hozirga filial tibbiy-ijtimoiy patronajining ko'chma brigadasi hududiy hokimliklar, mahalla kengashlari va sog'liqni saqlash muassasalari ko'magida viloyatning eng olis qishloq va mahallalarida yashovchi 1612 oila a'zolarining psixologik iqlimi va salomatlik holatini muntazam o'rganib chiqdi. Ko'riklar jami 17145 kishini, shu jumladan, 6623 bola va 8389 ayolni qamrab oldi. Fondning ko'chma brigadalari orqali kam taminlangan, ko'p bolali oilalar va nogironlarga xayriya yordami sifatida 23 958 paketli dori-darmon, shu jumladan, 3995

birlik miqdoridagi sanitariya va gigiyena buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Tug'ma yurak nuqsoni tashxisi qo'yilgan 42 nafar bola fond hisobidan davolandi.

Samarqand viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasiga berilgan diagnostika uskunalaridan foydalanigan holda 384 nafar ayollar va 185 nafar bolalar operatsiya qilindi va bepul davolandi.

Joylarda bolalar sportini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida jamg'arma madaniyat va sport boshqarmasi hamda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi bilan birgalikda o'tizga yaqin sport musobaqalari tashkil etildi. Ayollar sportini targ'ib qilish va qizlarni sportga ko'proq jalb qilish, xususan, badiiy gimnastika, yengil atletika, shaxmat va shashka sport turlariga alohida e'tibor qaratildi.

Rahima RAHMONOVA,
"Sog'lom avlod uchun" fondi
viloyat filiali rahbari.

Qilmish - qidirmish

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor xodimlari tomonidan "Qoradori – 2026" tezkor-profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Tadbir davomida 1950 yilda tug'ilgan, muqaddam jinoyat kodeksining 273-276-moddalari bilan sudlangan, Samarqand shahrida yashovchi fuqaro V.Sh. ning xonadoni tomorgasi ko'zdan kechirilganda besh dona gul tuvaklarda 5 tup "kanabbi"ga o'xshash o'simliklar parvarishlab kelinayotgani aniqlandi.

Fuqarolar arizasiga asosan amalga oshirilgan yana bir tezkor-qidiruv tadbirida Samarqand shahrida yashovchi fuqaro S.P. yashash xonadonida pul evaziga fohishaxona tashkil qilganligi ma'lum bo'ldi.

Fuqaro S.P. tezkor-tadbir uchun berilgan 400 ming so'm pullarni olgan vaqtda xolislar ishtirokida, ashvoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

R.YAKUBOV,
viloyat TXT boshqarmasi jinoyat qidiruv
bo'limi katta tezkor vakili.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ganiyev Alisher Iloxovichga (2024-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Fozilov Anvar Zokirovichga (2025-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Kadirov Kurbanaliga (2020-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-"B" uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xodjamov Vaxabga (2025-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Eshmuradov Ibadullaga (2018-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Xamrokov Erkin Ergashevichga (2025-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros

ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy,

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Rustamov Ne'matillo Hatamovichga (2020-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Egamberdiyev Abdusattorga (2023-yil 19-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xaydarov Maribjon Kunishovichga (2020-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abdimuratov Ismat Salimovichga (2025-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Nazarov Tolliboy Rustamovichga (2013-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Irga-

shev Raimkulga (2014-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Alimov Narvay Ibragimovichga (2015-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Fatullayev Mavlyankul Pardayevichga (2025-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Umarov Xasan Mukumovichga (2026-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Berdiyeva Marfochuchukga (2019-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Kabilova Sabo Kabilovnaga (2019-yil 5-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.



Қўтлаймиз!

Хўрматли Саид бобо РЎЗИЕВ!
Сизни яқинлашаётган таваллуд
кунингиз, қўтлуғ 86 ёшингиз
билан табриклаймиз.

Саид Рўзиев 1940 йилда Иштихон туманининг Равот кишлоғида туғилди. Ўрта мактабни тугатиб, бир муддат кишлоқ хўжалиги ишлари билан банд бўлди. Тиббёт соҳасига бўлган қизиқиши уни Самарқанд тиббиёт билим юртига етаклади. 1967 йилда ўқиниши битириб, кўп йиллар ўзи туғилиб ўсган Равот ва Йўфонтёпа кишлоқларида фельдшерлик қилди.

У даврда узок кишлоқларда тиббий мутахассислар етишмасди. Маҳалладошлари ҳолидан хабардор бўлиб, уларга кечаю кундуз биринчи тиббий ёрдам кўрсатарди. Ўз касбини сидқидилдан бажарганлиги, ҳалолиги ва фидойилиги билан одамлар орасида ҳурмат қозонди. Кўплаб фахрий ёрликлар, раҳматномалар билан тақдирланди. Турмуш ўртоғи раҳматли Хурсанд она билан беш ўғил ва икки қизни тарбиялаб вояга етказди.

Саид бобо, сизга мустаҳкам соғлик тилаймиз. Ўғил, қиз, невара-эваралар роҳатини кўриб юринг.

ИШТИХОН ТУМАНИДАГИ РАВОТ ВА ЙЎФОНТЕПА МАҲАЛЛАСИ АҲЛИ.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Umarov Xasan Mukumovichga (2026-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Voloshin Vladimir Vasilyevichga (2011-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Nikonova Lyudmila Vasilevna (2020-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Djumayev Abdunabi Karimovichga (2020-yil 7-dekabrda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

BEKOR QILINADI

Bulung'ur tumanidagi "SINDOR AGRO" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310871709) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "UROKOV DAMIR 777" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310076311) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston ushu federatsiyasi Samarqand viloyat bo'limining (STIR: 207021612) burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toshkent shahri Yangiheyot tumanidagi Muxammadiyev Adhamjon Akramovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 32407913950049) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Samarqand viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari Samarqand davlat universiteti profressori, biologiya fanlari doktori **Jo'raqul XODJAYEV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.



MINGTEPA dan devoriy suratlar topildi

Jomboy tumani Qoramo‘yin mahallasining shimoli-g‘arbida joylashgan Mingtepa yodgorligi o‘rnida VII-VIII asrlarda Sug‘dning yirik shaharlaridan biri bo‘lgan.

Yodgorlik ark, shahriston va rabot qismlaridan iborat bo‘lib, sharqdan kelgan karvonlar Mingtepa shahrida to‘xtab, keyin Samarqandga kirgan. Obyekt markazi yumaloq shaklda bo‘lib, o‘lchami 125x125 metr, balandligi 20 metr bo‘lgan hukmdor qarorgohi joylashgan. Unga kirish sharq tomondan bo‘lib, ikkala yonida ikkita qo‘riqchi minoralari orqali ko‘tarma (pandus) yordamida kirilgan.

Shahriston qismi hukmdor qarorgohining shimoli-sharqida joylashgan bo‘lib, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, tomonlari 400x200 metr, balandligi 8 metrga teng bo‘lgan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Janubiy mudofaa devori hukm-

dor qarorgohining g‘arbiy qismida joylashgan rabot qismiga ulashib ketgan. Ushbu devor qoldiqlari shahar mudofaasining muhim ajralmas elementi hisoblanadi.

Mingtepa shahri 40 gektarga yaqin bo‘lib, dastlab 1983-yilda arxeolog X.Oxunboboyev yodgorlikning yuza qismidan terib olingan kulollik idish namunalari asosida V-XII asrlar bilan davrlagan. So‘ngi yillarda Samarqand arxeologiya instituti, Yaponiya-Kiyoto san‘at universiteti va Berlin-Brandenburg fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda olib borilgan muntazam arxeologik qazishma ishlari natijasida yodgorlikning dastlab

milodiy III asrda paydo bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Yodgorlikni o‘rganish jarayonida VII-VIII asrlariga oid paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan mahobatli uylarning o‘rni va bir qancha ashyolar aniqlangan edi. Yaqinda O‘zbekiston-Yaponiya qo‘shma ekspeditsiyasi bilan birgalikda yodgorlikning shahriston qismidagi birinchi qazuv ishlarimiz davomida VIII asrga oid devoriy surat namunalari topildi. Ikkinchi qazishmada esa altar o‘rni aniqlangan bo‘lib, uning xona devorlarida qizg‘ish, ko‘k, havorang devoriy surat namunalari ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda institutimiz olimlari tomonidan restavratsiya ishlari davom ettirilyapti.

Husniddin RAHMONOV,
Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimi.

Yangi kitob

“Aytilmagan qo‘shiqlar”



Shoirilar borki, ularning ijod namunalari o‘qigan inson sokin bir ohang tuyadi. Bu tur she‘rlar o‘zining teran ma‘no ko‘lami, chuqur ko‘ngil kechinmalarini ifodalashi bilan ham xarakterlanadi. She‘rlardagi umumiy jihat ko‘ngil, ishq, dard, pand-nasihat kabi mavzular ijodida yetakchi o‘rin tutadi. Taniqli shoir Guljahon Mardon qizi shunday ijodkorlardan. Yaqinda uning «Aytilmagan qo‘shiqlar» nomli she‘riy to‘plami nashrdan chiqdi.

Ushbu to‘plamdan uning yillar davomida bitilgan ijod namunalari o‘rin olgan. Xususan, ko‘ngil va uning kechinmalari haqidagi she‘rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir o‘zini, o‘zidan ko‘nglini, ko‘nglidan haqiqatni izlaydi, botinga – ko‘ngilga boqishni, uni poklashni, so‘nggi manzilni ko‘ngildan topishni istaydi. U bir to‘rtligida shunday yozadi:

**Tunda hadsiz og‘riqlar ba‘zan,
O‘ylarimda qiyomat qoyim.
Kimga mehr berdim, bermadim,
“Ko‘ngil” bo‘lsin eng so‘nggi joyim.**

Guljahon Mardon qizi ko‘ngil kuychisi, ishq kuychisi, iztirob kuychisi. O‘ylash, fikrlash esa uning ijodiga olib boruvchi yo‘l, shoir hayotining ajralmas qismidir. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, to‘plam o‘quvchining ma‘nan yuksalishiga, o‘ylash, fikr yuritish qobiliyatini o‘stirishiga xizmat qiladi.



Polotsk shahri bayrami:

madaniyat, tartib va tozalik uyg‘unligi

Yaqinda ta‘lim olish maqsadida Belarus davlatining qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri Polotskga bordim. O‘qish jarayonida ustozlarimiz bizga omadli vaqtda kelganimizni, yaqin kunlarda shaharning an‘anaviy bayrami keng nishonlanishini aytishdi. Ma‘lum bo‘lishicha, har yili may oyining so‘nggi dam olish kunlarida Polotsk shahri kuni katta tantanalar bilan o‘tkazilar ekan. Bu xabar bizda katta qiziqish uyg‘otdi va bayramni intiqlik bilan kuta boshladik.

Bayram tadbirlari shaharning markaziy ko‘chasi va mashhur Ozodlik maydonida tashkil etilgan edi. Maydonida katta va zamonaviy sahna qurilib, tomoshabinlar uchun qulay o‘rindiqlar o‘rnatilgan.

Tadbir hududiga kirishimiz bilan bolalar uchun tayyorlangan ko‘rgazmalar diqqatimizni tortdi. Turli sohalar va kasblarga bag‘ishlangan ko‘rgazma burchaklarida bolajonlar o‘z qiziqishlariga mos mashg‘ulotlarda ishtirok etayotgan edilar. Tibbiyot sohasi vakillari mikroskoplar o‘rnatib, bolalarga gullarni kuzatish imkoniyatini yaratgan. Gaz ta‘minoti sohasi xodimlari qiziqarli savol-javoblar tashkil qilib, to‘g‘ri javob bergan ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari ulashmoqda. Poliklinika xodimlari katta tilaklar plakatin tayyorlab, unga ezgu istaklar yozgan mehmonlarga shar va taqvimlar taqdim etardi.

Shuningdek, yong‘in xavfsizligi xizmati vakillari o‘z texnik vositalari va jihozlarini namoyish qilib, bolalarni kasb sirlari bilan tanishtirdi. Shifokorlar esa qiziqarli savollar orqali ishtirokchilarga shirinlik va sovg‘alar tarqatishdi. Eng muhimi, bayramda qatnashgan har bir bola turli kasb egalari faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Ular bir necha daqiqa bo‘lsa-da, o‘zlarini shu kasb egasidek his etishdi.

Ozodlik maydonidagi konsert dasturi ham juda mazmunli tashkil etilgan edi. Mahalliy san‘atkorlar tomonidan milliy qo‘shiqlar ijro etildi, xalq raqslari namoyish qilindi. Har bir chiqishdan so‘ng turli sohalarida faoliyat yuritayotgan namunaviy davlat xizmatchilari faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Konsertdan so‘ng, shahar markaziy ko‘chasi-da tashkil etilgan yarmarkaga yo‘l oldik. Bu yerda milliy kiyimlar, musiqa cholg‘u asboblari, xalq amaliy san‘ati namunalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, taqinchoqlar, shifobaxsh o‘tlar va asal mahsulotlari namoyish etildi. Bayram munosabati bilan ko‘plab mahsulotlar arzonlashtirilgan narxlarda taklif qilingan.

Yarmarkada kafe va restoranlar uchun ham alohida joylar ajratilgan bo‘lib, mehmonlar milliy taomlardan bahramand bo‘lishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Oilalar va do‘stlar davrasida o‘tirib, milliy taomlardan tatib ko‘rayotgan insonlarni ko‘rish mumkin edi.

Bayram kuni havo salqin bo‘lib, vaqti-vaqti bilan yomg‘ir yog‘ib turdi. Shunga qaramay, shahar ko‘chalari odamlar bilan gavjum edi. Ikki kun



davom etgan tantanalarining asosiy qismi shanba kuni bo‘lib o‘tdi.

Mening e‘tiborimni tortgan jihat shaharning tozaligi bo‘ldi. Ko‘chalar-da yuzlab odamlar sayr qilib, turli yegulik va ichimliklar iste‘mol qilayotgan bo‘lsalar-da birorta ham chiqindiga ko‘zim tushmadi. Chiqindi qutilari vaqtda bo‘shatilib, kommunal xizmat xodimlari tozalikni doimiy nazorat qilib turishardi. Avvaliga bu holatni bayram munosabati bilan kuchaytirilgan nazorat deb o‘yladim. Ammo dushanba kuni darsdan keyin yana shu ko‘chalarni aylanib chiqqanimda hayratim yanada oshdi. Tashkilotchilar sahna va boshqa jihozlarni yig‘ishtirayotgan bo‘lsalarda, ko‘chalar avvalgidek ozoda edi. Hech qayerda plastik idish, qog‘oz, salfetka yoki boshqa chiqindilar ko‘rinmasdi. Bu esa shahar aholisining ekologik madaniyati yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ular chiqindilarni belgilangan joylarga tashlashni odat qilgan.

Polotsk shahri bayramida sayr qilar ekanman, xayolimda o‘zimizning go‘zal Samarqand gavdalandi. Har yili 18-oktabr kuni keng nishonlanadigan Samarqand shahri kuni, milliy qadriyatlarimiz namoyishi va xalq sayillari yodimga tushdi. To‘g‘ri, bizda ham bu sayillar ko‘tarinki ruhda tashkil etiladi, ammo ba‘zida nomiga o‘tadiganlari ham bor. Polotskda turli kasb egalari bolalarga foydali bo‘lgan, ularning bevosita ishtirok etishi uchun imkon beradigan ko‘rgazmalarni bizda ham tashkil etish mumkin-ku.

Polotskda ko‘rganlarim menda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, shahar aholisining tozalikka bo‘lgan munosabati, bolalar tarbiyasiga qaratilgan e‘tibor va bayramlarning yuqori saviyada tashkil etilishi tahsinga sazovordir. Bu sayohat menga nafaqat yangi tajriba, balki o‘z yurtimizning qadriyatlarini va bayramlarini yanada chuqurroq anglash imkonini ham berdi.

Munisa SHAMSIYEVA.

Taassurot

Mushohada

Ba‘zan o‘ylab qolaman, nega «tekis» yo‘lda yurganlar «o‘nqir-cho‘nqir» yo‘lda yurganlarga qaraganda hayot falsafasini va hikmatlarini teran anglamaydi? Qishloq markazidagi muhtasham to‘yxonadan taralgan baland musiqa ovozi va rang-barang chiroqlarning jilvasi butun borliqni tutgandi. Sal berida, o‘rindiqda o‘tirgan chol chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

“Tekis yo‘l” TASHVISHLARI

- Bobo, qarang, qanday chiroyli! – dedi nabira to‘yxonaga qo‘l ushlashib kirib ketayotgan ke-lin-kuyovga ishora qilib. - Xuddi etaklardagidek... Otaxon nabirasining sochlarini silab, yaltiroq manzaraga mahzun boqib dedi:

- Bilasanmi bolam, ko‘rayotganlarning to‘y sohib-larining ssenariysi. Ular uchun to‘y – xursandchilik emas, balki mansab, obro‘ va boylqlikni ko‘z-ko‘z qiladigan sahna. U yerda hamma narsa soxta: tabassumlar ham, maqtovlar ham. Ular oyog‘i yerdan uzilganlar, kibrdan sarxush bo‘lganlar.

- Lekin hamma o‘sha yerga intilyapti-ku? – deb so‘radi nabira hayron bo‘lib.

- Bunday dabdabaning soyasida qolayotgan odamlarga kuyaman. Chunki bugun to‘ylar oddiy yashayotgan odamlar uchun katta aziyat. Ular «falonchidan kam bo‘lmay» deb yillab yiqqan rizqini, peshona teri bilan topgan pullarini bir kechalik soxta obro‘ uchun sovrishyapti.

Chol nevarasi ko‘ziga tikildi:

- Biz oltin sotishda jahonda oldingi o‘rinlarda bo‘lsak-da, nega ba‘zi kichik davlatlardan iqtisodda orqadamiz? Chunki ular oltinni yerdan emas, bilimdan izlashadi. Agar biz ham mana shu bir kunlik isrofdan voz kechib, mablag‘imizni farzandlarimizni o‘qitishga, ilimga tiksak, hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaymiz. Bir kunlik to‘y dasturxonini qorinni to‘ydirar, lekin kitob va ta‘lim butun umr yo‘lingni yoritadi. To‘yxonalarni emas, kutubxonalarni to‘ldir-sak, yo‘llarimiz nurli manzillarga yetaklaydi, shundagina boy bo‘lamiz.

Nabiraning qo‘lidagi telefon jiringladi.

- Bilasanmi, qo‘lingdagi telefonni, bu texnologiyalarning asosi bo‘lgan aytisimlarni bobomiz Al-Xorazmiy yaratgan. Biz esa o‘sha ilmnı ko‘ldan berib, faqat uning yaltiroq o‘yinchoq‘iga mahliyo bo‘lib o‘tiribmiz.

Chol qaddini rostdab dedi: «Ketdik, bolam».

Oyoq ostidagi silliq asfalt ularni oddiy va halol manzillar sari yetaklardi. Chol va nabira atrof-dagi soxta dabdaba va shovqin-suronga e‘tibor ham qilmasdan, «tekis» yo‘l tashvishlarini o‘ylab ildamlashdi...

Abdug‘ofur NORQULOV,
Past Darg‘om tumani.

ANGLASH

Qancha manzillarda kezdim sarbasar,
Qancha yo‘llar bilan birga kechdi jon.
Ammo mening dildan anglaganim shu – VATAN.

Asli baxt va shodlik to‘la arkonim,
Balki kimlargadir mangu armonim.
Har dam chorlaguvchi oltin ayvonim – VATAN.

Yig‘laguvchi jismim sovigan onim,
Asraguvchi hatto, eng so‘nggi qonim.
Qabrimni ham ko‘zga surar imkonim – VATAN.

SEN NUR BO‘LGIN...

Sen nur bo‘lgin, toza nur bo‘lgin,
Jannatlarning gulobini ich.
Nafis hislar soyalarida
Orom ol-u samolarni quch.
Quyosh bo‘lib kuydir vujudim,
G‘am muzligi eriblar bitsin.
Oftobingga chidolmay oxir,
Gunohlarim to‘kilib ketsin.

OSONMAS...


Achchiq azoblarni sipqarmoq mushkul,
Osonmas armonlar zahrini yutmoq.
Aldamchi yellarni qamab yurakka,
Osonmas ertakdan rostlarni kutmoq.
Eh, yillar tobida yuksalding qancha,
Goh yig‘lab, goh kulib yashayapsan, dil.
Dunyoning sinovli ko‘chalarida,
Qadamingni mag‘rur tashlayapsan, dil.
Kimga zulmat ato, kimga nur ato,
Baribir shukrona qilmoq buyuklik.
Sabr tog‘lariga bog‘la jismingni,
Yaratganga bo‘lay desang suyuqlik.

Guljahon MARDON qizi.

“Umr kitobi:

kechinmalar va yozishmalar”

Ozarbayjonning Boku shahridagi “Elm va tahlil” nashriyotida shoir, publitsist va olim Saxavat Ojiyev haqidagi shu nomli kitob nashr qilindi.



Kitobda «Saxavat Ojiyev zamondoshlari nazarida» degan nom ostida berilgan maqolalar-da uning ilmiy-pedagogik faoliyati, ozarbayjon va o‘zbek adabiy muhitida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan. S.Ojiyevni bilgan, birga ishlagan hamkasblari, tanishlarining e‘tirolari-da uning har ikki millat do‘stligi, adabiy aloqalari rivojiga qo‘shgan hisssasi, insoniy fazilatlarini ochib berilgan.

Saxavat Ojiyev uzoq yillar Samarqand davlat universitetida faoliyat ko‘rsatgan va ayni paytda pensiyada.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 319 nusxada chop etildi. Buyurtma 259. Hajmi 2 bosma tabo, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda